

---

## Tashabbusli byudjet: “Voxim” mahallasidagi elektr ta’minoti yaxshilanmoqda

□ Rishton tumanida tashabbusli byudjet asosida olib borilayotgan ishlar hududlarning ijtimoiy va iqtisodiy holatini yanada yaxshilashga xizmat qilyapti. Mazkur loyihada o’z tashabbuslari bilan faol qatnashgan mahallalardagi yo’l, ichimlik suv, elektr ta’minoti bilan bog’liq muammolar bosqichma-bosqich o’z yechimini topmoqda.

✿ «Voxim» mahalla fuqarolar yig’ini aholisi ham mazkur loyihada faol ishtirok etib, ko’plab tashabbuslarining g’oliblar qatoridan o’rin olishiga erishishdi. Hududdagi aholini uzoq yillardan beri elektr ta’minoti muammosi qiynab kelardi. Bu esa aholining haqli e’tiroziga sabab bo’lardi. Ushbu muammoga esa tashabbusli byudjet jarayoni yechim bo’lmoqda.

???? Mahalla aholisini elektr ta’minlash yuzasidan ilgari surilgan tashabbusni amalga oshirish uchun 1 mlrd 100 million so’m mablag’ ajratilib, yangi transformator hamda tayanch ustunlari o’rnatish ishlari boshlab yuborildi. Tarmoq tortish ishlari yakunlangandan so’ng, mazkur mahallaga transformatorlar ham o’rnatiladi. Olib borilgan ishlar natijasida hududdagi elektr ta’minoti yaxshilanib, xonadonlarga sifatli elektr energiyasi uzatiladi.

Loyiha doirasida belgilangan bunyodkorlik ishlari mahallada davom etmoqda.

2023-02-11 09:54:26